

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING YARATILISH TARIXI

Ilmiy rahbar: Azamova Sitora Ayonovna

SHDPI ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Narzullayeva Iroda

SHDPI Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va

huquq ta‘limi yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilish tarixi va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilishigacha bo‘lgan davrda fuqarolarning huquq va erkinliklari qay tarzda muhofaza qilinganligi, shu bilan bir qatorda Konstitutsiyaning fuqarolar hayotidagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, Konstitutsiyaning yaratilishi, Konstitutsiyaning tarixi, Konstitutsiya bosh qomus, Konstitutsiya huquq va erkinliklarini kafolati.

O‘zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgustda mustaqillikka erishdi va shu kundan boshlab davlatni boshqarishda ma'lum bir qonun tizimiga ehtiyoj sezdi. Aynan bu jarayon Konstitutsiyamizning tezroq ishlab chiqib, xalqqa taqdim etilishiga undadi. Aslida Konstitutsiyamiz ustida ishlash 1990-yil 20-iyunda "Mustaqillik Deklaratsiya" si qabul qilingandanoq boshlangandi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yaratilishidagi ilk qadamni birinchi prezidentimiz Islom Karimov Konstitutsion komissiya tuzgan holda boshlab berdi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilishiga ikki yarim yil sarflandi. Komissiya a'zolari 65 kishidan iborat bo'lib, ikki yarim yil davomida 2marta Konstitutsiyaning variantlarni tayyorlashdi. Birinchi varianti muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob 158 modda, ikkinchi varianti bo'lsa, 149 moddadan iborat bo'lib, barchasi komissiya a'zolari tomonidan birma-bir o'rganilib

qo‘shimcha va o‘zgarishlar kiritildi.1992-yilning 7-dekabr sanasida konstitutsiya xalq muhokamasiga qo‘yildi,bu muhokama natijasiga ko‘ra besh mingga yaqin yurtdoshlarimiz O‘zbekiston fikr mulohazalarini komissiya a'zolariga yo‘llashdi.Komissiya tomonidan barcha fikrlar o‘rganilib chiqilgan holda,konstitutsiyaga 80ga yaqin o‘zgarishlar kiritildi.1992-yilning 8-dekabr sanasida,muqaddima, 6bo‘lim,26 bob,128 moddadan iborat, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi,tantanali tarzda qabul qilindi.Aslini olganda Konstitutsiya qabul qilinishiga qadar,"Mustaqillik asoslari"to‘g‘risidagi qonun konstitutsiya vazifasini bajarib turdi.Bosh qomusimiz qabul qilingan kun ya'ni, 8-dekabr 32yildan buyon xalqimiz orasida tantanali tarzda nishonlanib kelinmoqda. Konstitutsiya bu- lotincha:tuzuk,tuzilish ma'nolarini anglatadi.Asosiy qonun bo'lib,u davlatning tuzilishining,hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini,ularning vakolatining,shu bilan birga inson huquqlari va erkinliklarini belgilab beradi.Konstitutsiyalar tarixiga nazar solsak,Qadimgi Rimdayoq ma'lum bo‘lgan,(imperator Konstitutsiyasi deb atalgan qonun),shu o'rinda Amir Temur "Tuzuklari"Sharq va G‘arb manbalarida konstitutsiyani shakllanishiga asos bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Biz mustaqillikka erishgach konstitutsiya tuzdik,shundan so'ng konstitutsiya nima ekanligini tushundim,desak mubolag'a bo‘ladi.Negaki,bizning davlatimiz qadimdan, ya'ni, Sug‘d,Xorazm, Baqtiryra kabi davlatlar davridan toki, shu kungacha bo‘lgan davrda egallagan 3000 yildan ziyod tajribalariga asoslangan holda,mukammal, xalqaro davlatlar talabiga javob beradigan konstitutsiyani ishlab chiqishda.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bir qator mamlakatlar Konstitutsiyasi bilan bemalol raqobatlashib oladigan konstitutsiya bo'lib,xato unda inson qadriga alohida e'tibor qaratilgandir.Konstitutsiyamiz qabul qilingandanoq fuqarolarimizning huquq va erkinliklari qonun bilan himoya qilib qo‘yildi.Bu esa fuqarolarning hayotlarini yanada osonlashtiradi.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi boshqa davlat konstitutsiyalaridan ma'lum jihatlar bilan farq qiladi:insonlarning huquqlari har taraflama mukammal tarzda belgilangan bo'lib,inson qadri birinchi o'rinda turadi Mustaqillikdan oldingi davrga nazar sotadigan bo'lsak,inson

huquqlari,erkinliklari oyogʻ ostia boʻlganiga guvoh boʻlamiz.Konstitutsiyamizni qabul qilingan kunini iz oʻz etkimiz,oʻz qadrimiz,oʻz huquqlarimiz qaror topgan kun sifatida har yili 8-dekabr sanasini nishonlaymiz. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga 1991-yildan boshlab toki 2023-yilga qadar 15dan ortiq oʻzgarish va qoʻshimchalar kirgizilgan boʻlib,bulardan eng katta oʻzgarish 2023-yilning 30-aprelida boʻlib oʻtdi.Ayni shu kuni referendum natijasiga koʻra,Oʻzbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi muqaddima, 6 boʻlim,27 bob,155 moddadan iborat Konstitutsiyasi qabul qilindi.Bu konstitutsiyada yanada inson qadri ulugʻlangan holda mazmunan,yanada,toʻldirilib,huquq va erkinliklarimiz mustahkamlanib qoʻyildi.Konstitutsiyamizning 7-moddasiga binoan:xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir deb belgilanganligini koʻrishimiz mumkin.Shu bir qoida misolida ham inson qadri davlatimiz konstitutsiyasida qay darajada ulugʻlanayotganini koʻrishimiz mumkin.Soʻnggi yillarda yurtimizda yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ham inson qadrini ulugʻkash orasida koʻplab ,keng miqyosda,qarorlar olib borilayotganini koʻrishimiz mumkin. Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning 54-moddasida:Insonning huquq va erkinliklarini taminlash davlatning oliy maqsadidir. Deb belgilanishida ham inson huquqlari har taraflama mukammal tarzda muhofaza qilinganligini koʻrishimiz mumkin.Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning oʻn toʻrtinchi bobiga eʼtibor qaratadigan boʻlsak:Oila,bolalar,yoshlar deb nomlanadi.Bu tarzda atalgan bob deyarli bizning konstitutsiyamizga xosdir.Konstitutsiyamizning har bir bobi bizning manfaatlarimizni koʻzlagan holda tuzilganligiga guvoh boʻlishimiz mumkin.

Xulosa oʻrinda shuni aytishim lozimki,Konstitutsiyamiz bizning manfaatlarimizni,huquq va erkinliklarimizni,kafolatlaydigan bosh qomusimizdir.Negaki konstitutsiyamiz barcha qonunlarning asosi boʻlib barcha qonunlar,qoidalar konstitutsiyamizga zid boʻlmasligi kerakligi qonun bilan belgilab qoʻyilgan. Konstitutsiyamizning har bir moddasi,har bir qismi,har bir bandida inson qadri ulugʻlanganligini koʻrishimiz mumkin. Bunga misol tariqasida,8-moddani aytishimiz joizdir: Oʻzbekiston xalqining millatidan,

irqidan qati nazar,O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tashkil etadi .Yurtimizda demokratik erkinlik, bag‘ri kenglik mustahkamlanib qo‘yilganidan,yurtimizda 130dan ortiq millat istiqomat qilib kelmoqda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasiga binoan har kim yashash huquqiga agadir deb belgilangandir.Biz Konstitutsiyamizning 61-moddasida belgilanganidek:Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy,ma'naviy, madaniy,ilmiy va tabiiy merosini asrab avaylashi shart deyilgan. 60-moddada. Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga royal erishgach,boshqa insonlarning huquqlari,erkinliklari,Spanish va qadr-qimmatinu hurmat qilishga majburdirlar. 62-moddada Fuqarolar ateof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar.141-modda Jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko‘rsatish uchun advokatura faoliyat ko‘rsatadi.128-modda.O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyatining vakillik organlariga saqlash va saqlanish huquqiga ega. Yuqorida keltirilgan moddalarga quyidagicha fikr bildirish mumkin:O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi barcha moddalarda inson farovonligi o‘ylangan holda moddalarda o‘z aksini topgan .Konstitutsiyamizning har bir moddasi fuqarolarning bugungi va ertasi uchun xizmat qiladi.Bunga misol tariqasida 62 -moddani olaylik bu moddada atrof muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishimiz kerakligi,haqida fikr yuritilgandir.Ayni ushbu modda insonlarning kelajagini,sog‘lig‘ini o‘ylagan holda,konstitutsiyaga kiritilgandir.Chunki hozirgi kundan xalqaro muammolardan biri ekalogiya muammosidir.Bugungi kundagi yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning eski nashrdagi konstitutsiyamizdan farqi shundaki,Yangi tahrirdagi konstitutsiyamiz yanada zamon talablariga javob beradigan tarzda boyitilganidadir.Konstitutsiyamiz bosh qomusimiz,qonunimiz,iftixorimizdir.Chunki konstitutsiyamizga kiritilgan barcha moddalar,biz uchun,xalqimiz uchun,davlatimiz uchun huquqlarimiz kafolatidir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ayanovna A.S.Xudoyberdi o‘g‘li.P.L.EKALOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKALOGIK OMIL TUSHUNCHASI /TADQIQITLAR.UZ.-UZ.-2024-T.40-N-^o.4.-C.135-139.
2. Islomov.Z.M.Davlat va huquq NAZARIYASI.-T.:Adolatli.2007.
3. Odilqoriyev X. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik-T.:Adolat,2018.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023.
5. <http://www.tsul.uz>
6. Davlat va huquq nazariyasi/Mas'ul muharir M.Axmedshaeva.Darslik.Toshkent:TDYuU,2019.
- 7.[http:// www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)